
105/108-guruh o'quvchilari va ularning ota onalari hamda fan o'qituvchilari bilan birgalikda ochiq muloqot bo'lib o'tdi

Joriy yilning 5-noyabr sanasida akademik litseyda navbatdagi yig'ilish **105/108-guruh** o'quvchilari va ularning ota onalari hamda fan o'qituvchilari bilan birgalikda ochiq muloqot bo'lib o'tdi.

Yig'ilishni akademik litsey ijrochi direktori Dilshodxon Islomov hamda litsey ma'muriyati mas'ul xodimlari olib bordi va yig'ilishda umumiy ma'lumot bo'yicha o'quvchilarning ikki yil davomidagi o'quv tizimi, qo'lga kiritishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar, o'quv mashg'ulotlariga qatnashish davomati, o'zlashtirish ko'rsatkichlari muhokama qilindi.

Akademik litseyda tashkil etilgan ushbu ochiq muloqotda tashrif buyurgan o'quvchilarning ota-onalariga kerakli barcha ma'lumotlar yetkazildi va ularning qiziqtirgan savollariga atroflicha javob berildi













SamDChTI akademik litseyi axborot xizmati